

**ZAMONAVIY O'RTA OSIYO DAVLATLARI TARIXSHUNOSLIGI
MAKTABI TADQIQOTLARIDA CHIG'ATOY ULUSI MUSTAQILLIK
DAVRINING O'RGANILISHI**

Shahlo Maxamova

Mustaqil tadqiqotchi

shahlomahamova88@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-9587-9063>

ANNOTATSIYA. Maqolada Chig'atoy ulusi tarixining 1306–1346-yillardagi mustaqillik davri zamonaviy O'rta Osiyo davlatlari (O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston) tarixshunoslik maktablari tadqiqotlari misolida qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda mustaqillik yillarida ushbu davlatlar olimlari tomonidan Chig'atoy ulusi suverenitetining shakllanishi, Kebekxon islohotlari va urbanizatsiya jarayonlariga berilgan yangicha ilmiy baholar yoritilgan. Muallif milliy tarixshunosliklardagi kontseptual o'zgarishlarni o'rganib, Chig'atoy davrini mintaqa davlatchiligi tarixidagi uzviy va fundamental bosqich sifatida baholashdagi yangi tendensiyalarni asoslab beradi. Maqolada zamonaviy tarixshunoslikning Chig'atoy ulusi mustaqilligini mintaqaviy o'zlik va davlatchilik evolyutsiyasi kontekstida o'rganishdagi ahamiyati isbotlangan.

Аннотация. В статье проведен сравнительный анализ периода независимости Чагатайского улуса (1306–1346 гг.) на примере исследований современных историографических школ государств Средней Азии (Узбекистана, Казахстана, Таджикистана и Кыргызстана). В исследовании освещены новые научные оценки формирования суверенитета улуса, реформ Кебек-хана и процессов урбанизации, данные учеными этих стран в годы независимости. Автор, изучая концептуальные изменения в национальных историографиях, обосновывает новые тенденции в оценке чагатайского периода как неотъемлемого и фундаментального этапа в истории государственности региона. В статье доказана значимость современной историографии в изучении независимости Чагатайского улуса в контексте региональной идентичности и эволюции государственности.

Abstract. The article provides a comparative analysis of the independence period of the Chaghatai Khanate (1306–1346) based on the research of modern historiographical schools of Central Asian states (Uzbekistan, Kazakhstan, Tajikistan, and Kyrgyzstan). The study highlights new scientific evaluations of the formation of the Khanate's sovereignty, the reforms of Kebek Khan, and urbanization processes provided by scholars from these countries during the years of independence. By examining conceptual shifts in national historiographies, the author substantiates new

trends in assessing the Chaghatai period as an integral and fundamental stage in the history of regional statehood. The article proves the significance of modern historiography in studying the independence of the Chaghatai Khanate within the context of regional identity and the evolution of statehood.

Kalit so'zlar: Chig'atoy ulusi, zamonaviy tarixshunoslik, O'rta Osiyo, suverenitet, Kebekxon islohotlari, milliy maktablar, davlatchilik evolyutsiyasi.

Ключевые слова: Чагатайский улус, современная историография, Средняя Азия, суверенитет, реформы Кебек-хана, национальные школы, эволюция государственности.

Key words: Chaghatai Khanate, modern historiography, Central Asia, sovereignty, Kebek Khan's reforms, national schools, evolution of statehood.

KIRISH

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishganidan so'ng, mintaqa tarixining ko'plab "yopiq" sahifalarini, xususan, Chig'atoy ulusining 1306–1346-yillardagi mustaqillik davrini yangidan o'rganish imkoniyati tug'ildi. Sovet davri tarixshunosligida ko'p hollarda "vayronkor bosqin" yoki "inqiroz davri" sifatida talqin qilingan Chig'atoy ulusi tarixi, zamonaviy O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston tarixshunoslik maktablari tomonidan bugungi kunda yangicha sivilizatsiyaviy yondashuvlar asosida tadqiq etilmoqda. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, zamonaviy O'rta Osiyo davlatlari tarixshunosligida Chig'atoy ulusi nafaqat mo'g'ul imperiyasining bir qismi, balki mintaqada milliy davlatchilik an'analarini tiklagan, o'ziga xos ma'muriy va iqtisodiy tizimini yaratgan suveren siyosiy tuzilma sifatida baholanmoqda. Maqolada O'zbekiston (B. Ahmedov, A. O'rinboyev va b.), Qozog'iston (T. Sultonov va b.) va boshqa qo'shni davlatlar olimlarining tadqiqotlari qiyosiy tahlil qilinib, Chig'atoy ulusi mustaqilligining o'rganilish darajasi va unga berilgan zamonaviy ilmiy baholar tizimlashtiriladi.

Markaziy Osiyo xalqlari mustaqillikka erishgach, mintaqa davlatchiligi tarixini, xususan, Chig'atoy ulusi davrini o'rganishda konseptual o'zgarishlar yuz berdi. Ushbu yo'nalishdagi zamonaviy tadqiqotlarning bosh maqsadi – Chig'atoy ulusining 1306-1346-yillardagi tarixini "bosqinchi va begona imperiya" qolipidan chiqarib, uni milliy davlatchilik evolyutsiyasining uzviy va fundamental bosqichi sifatida qayta baholashdan iboratdir.

Zamonaviy O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston tarixshunoslik maktablari (O.Karayev, K.A. Pishulina, T.Sultonov, G.Achilova, S.Ulashova, S.Bekmuradov va b.) o'z izlanishlarida asosiy urg'uni ulus mustaqilligining institutsional uzviyligi masalasiga qaratmoqdalar. Bu maktab vakillari uchun 1306-1346-yillar – shunchaki mo'g'ul hukmronligi emas, balki Movarounnahr va Turkistonning ijtimoiy-siyosiy qiyofasini belgilab bergan, Kebekxon va Tarmashirinxon islohotlari orqali Temuriylar

renessansi uchun zamin hozirlagan noyob suverenitet bosqichidir. Quyida mazkur guruhga mansub tadqiqotchilarning Chig'atoy ulusi mustaqilligiga doir konseptual qarashlarini tahlil qilamiz.

O.Karayevning qator tadqiqotlarida Chig'atoy ulusining 1306-1346-yillardagi tarixini mintaqaviy konsolidatsiya davri sifatida tahlil qilib, Duvaxon faoliyatidagi siyosiy o'zgarishlarni ulusning “markazlashgan suverenitet sari birinchi qadam” deb baholaydi¹. Shuningdek, olim Kebekxonning ma'muriy islohotlarini tadqiq etar ekan, buni ulusning sharqiy va g'arbiy qismlari o'rtasidagi madaniy-iqtisodiy muvozanatni saqlashga urinish deb ataydi. Uning fikricha, Kebekxonning poytaxtni Movarounnahrda ko'chirishi ulusning siyosiy markazini o'zgartirsa-da, bu jarayon ko'chmanchi aristokratiya bilan ziddiyatlarni keltirib chiqarganini ilmiy asoslab berdi².

K.A.Pishulinaning asarlari Chig'atoy ulusi tarixini hududiy-geosiyosiy yaxlitlik va Mog'uliston davlatining ajralib chiqish jarayonlari prizmasidan o'rganishda fundamental ahamiyatga ega. Olima XIV asr o'rtalari – XVI asr boshlarida Janubi-Sharqiy Qozog'iston nomli fundamental monografiyasida Chig'atoy ulusining 1306-1346-yillardagi tarixini Movarounnahr va Mo'g'uliston (Yettisuv) munosabatlari kontekstida tahlil qilib, Duvaxon va Kebekxon davridagi ulusni yagona va qudratli geosiyosiy birlik sifatida baholaydi³. Unga ko'ra, 1306-yildan boshlab Chig'atoy ulusi o'zining shimoliy va sharqiy chegaralarida O'qtoy vorislarini to'liq mag'lub etib, hududiy konsolidatsiyani yakunlagan. U Kebekxonning Movarounnahrda o'rnatishini ulusning markazi Yettisuvdan Movarounnahrda siljishida deb hisoblaydi. Olima ulusning parchalanish jarayonini 1330-yillardan, ya'ni Tarmashirinning islomni qabul qilishi va o'troqlashuv siyosatidan boshlangan deydi. Ishda Mog'ulistonning (Yettisuv va Qoshg'ar) ajralib chiqishi shunchaki siyosiy ixtilof emas, balki Movarounnahrning islomlashuviga nisbatan ko'chmanchi mo'g'ul an'atasi tarafdorlarining reaksiyasi sifatida tahlil qilinadi⁴. Ishda ulusning 1346-yilgi parchalanishini tasodifiy voqea emas, balki Movarounnahr va Mog'uliston o'rtasidagi uzoq muddatli iqtisodiy va madaniy tafovutlarning natijasi sifatida ilmiy asoslaydi.

T.Sultonovning tadqiqotlari Chig'atoy ulusi tarixini sulolaviy legitimlik va chingiziy boshqaruv an'analari prizmasidan o'rganishda muhim hisoblanadi. Olim Chig'atoy ulusi mustaqilligini asosan xonlar shajarasi va “Oltin urug'” (chingiziylar) huquqi doirasida tahlil qiladi va Duvaxon va Kebekxon faoliyatini Chingizxon

¹ Караев О.К. Чагатайский каганат. Из истории Средней Азии и Казахстана (XIII–XIV вв.). – Фрунзе: Илим, 1989. – С. 112.

² Караев О.К. История кыргызов и Кыргызстана. – Бишкек: Илим, 1993. – С. 42–46.

³ Пищулина К.А. Юго-Восточный Казахстан в середине XIV – начале XVI веков (Вопросы политической и социально-экономической истории). – Алма-Ата: Наука, 1977. – С. 38–40.

⁴ Пищулина К.А. К истории Семиречья и Восточного Дешт-и Кыпчака в XIV–XV вв. // Казахстан в эпоху феодализма. – Алма-Ата, 1981. – С. 122–124.

“Yasa”sini mintaqaviy sharoitga moslashtirish jarayoni deb baholaydi⁵. Uning fikricha, 1306-yildagi mustaqillik – bu xonlikning Yuan imperiyasidan to’liq ajralishi emas, balki “Oltin urug” ichidagi vakolatlarning qayta taqsimlanishidir. Olim tadqiqotlarining dissussiyali jihatlari ham bo’lib, bular Chig’atoy ulusi tarixini asosan “ko’chmanchi imperiya” modeli doirasida o’rganish, Chig’atoy ulusi va Temuriylar davlati o’rtasidagi institutsional uzviylikni biroz past baholash va Tarmashirinxon davridagi islomlashuv jarayonini asosan sulolaviy inqiroz omili sifatida ko’rsatish bilan bog’liq.

G.Achilovning tadqiqotlari 1227-1370-yillarda Movarounnahrning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy hayotini tizimli tahlil qilishga qaratilgan. Muallif mo’g’ul an’analari va mahalliy ma’muriy institutlarning sinteziga urg’u beradi. U zamonaviy o’zbek tarixshunosligida birinchilardan bo’lib ulusda markaziy va mahalliy boshqaruvning aniq tasnifini taqdim etadi⁶. Shuningdek, tadqiqotda bahsli jihatlar ham mavjud bo’lib, bular ulusning xronologiyasi, tadqiqotga numizmatik ma’lumotlarni yetarli jalb qilinmagani va boshqalar bilan bog’liq.

S.U. Ulashovning mavzu doirasidagi tadqiqotlari Chig’atoy ulusi tarixini ma’muriy boshqaruv, ijtimoiy tabaqalanish va mahalliy amirlar tabaqasining shakllanishi, etnik jarayonlar, Chig’atoy xonlarining faoliyati kabi masalalarini yoritishda bugungi o’zbek tarixshunosligida markaziy o’rinlardan birini egallaydi. Olima birinchilardan bo’lib Chig’atoy ulusining barcha hukmdorlari faoliyatini sharq manbalari asosida yoritib berdi. Ishda ulusning o’ttiz uchta xoni nomi, xronologiyasi, shajarasi, faoliyati kabi masalalar tizimli isbotlab yoritib berilgan. Shuningdek, Chig’atoy ulusi hududidagi etnik jarayonlar yuzasidan ham fundamental tadqiqot olib borib, mo’g’ullargacha mahalliy aholining etnik tarkibi, mo’g’ullar bilan ulusga kirib kelgan barlos, jaloyir, arlot, sulduz, nayman kabi etnik guruhlar xususidagi muhim masalalarni yoritib bergan⁷. Olima tadqiqotlarining ilmiy ahamiyati shundaki, u Chig’atoy ulusi tarixini o’rganishda “ijtimoiy-struktural yondashuv”ni qo’llab, ulusning ma’muriy apparati va ijtimoiy qatlamlari o’rtasidagi bog’liqlikni yoritadi va Kebek va Tarmashirin davridagi mustaqillikni mintaqaviy elita konsolidatsiyasi natijasi sifatida asoslaydi⁸.

S.Bekmuradovning tadqiqotlari Chig’atoy ulusi davlatchiligi tarixini manbashunoslik tahliliga asoslangan boshqaruv tizimini o’rganishda muhim

⁵ Султанов Т.И. Чингиз-хан и Чингизиды. Судьба и власть. – М., 2006. – С. 156.; Кляшторный С.Г., Султанов Т.И. Казахстан: Летопись трех тысячелетий. – Алма-Ата: Рауан, 1992. – С. 208-212.

⁶ Ачилова Г. Мовароуннахрнинг Чигатой улуси таркибидаги сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий ҳаёти (1227-1370 йиллар). PhD. дисс. автореф. – Т., 2019. – 52 б.; О’sha mual. Чингизийлар даври Мовароуннахр маъмурий бошқарувида марказий ва маҳаллий анъаналар // О’zbekiston tarixi, 3-сон – Т., 2018. – Б. 26-38.; О’sha mual. Чигатой улуси даври тарихининг ўрта аср манбаларида ёритилиши // Ўзбекистон тарихи ва маданияти. Илмий анжумани материаллари – Т., 2011. – Б. 71-74.

⁷ Улашова С.У. XIII-XV асрлар манбаларида Мовароуннахрдаги этник жараёнлар. – Т., 2023. – 206 б.

⁸ Ulashova S.U. Sharq manbalarida Chig’atoy ulusi hukmdorlari. – Т., 2025. – 314 б.

ahamiyatga ega⁹. U manbalarda uchraydigan ma'muriy-huquqiy atamalarni (yorliq, bitikchi, tamg'achi, devon) chuqur tahlil qilib, ularning Chig'atoy ulusi ma'muriy apparatidagi funksional vazifalarini ochib bergan. Tadqiqotda arab tili manbalaridagi Chig'atoy ulusi ma'muriyatiga oid ma'lumotlar forsiy manbalar bilan tizimli solishtirilgan, bu esa boshqaruv tizimi haqida ob'yektiv xulosalar chiqarish imkonini bergan. Ammo, ishda ayrim kamchilik va bahsli jihatlar ham mavjud. Jumladan, muallif ko'proq boshqaruvning tizimli holatiga urg'u bergan, ammo suverenitetning shakllanishi va inqirozi jarayonidagi siyosiy dinamikani, ma'muriyatning amaliy-xo'jalik quvvatini yetarli darajada ochib bermagan.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy O'rta Osiyo davlatlari tarixshunoslik maktablari vakillari tadqiqotlarini tahlil qilish natijasida quyidagi fundamental xulosalarga kelindi:

Birinchidan, zamonaviy tarixshunoslikda Chig'atoy ulusining 1306–1346-yillardagi faoliyati “ko'chmanchi bosqinchilik” stereotipidan voz kechib, “mintaqaviy davlatchilik renessansi” sifatida baholanmoqda. O'zbekiston tarixshunoslik maktabi (B. Ahmedov va uning davomchilari) ushbu davrni Amir Temur saltanati uchun institutsional poydevor (kontinue) sifatida o'rganishga urg'u bersa, qo'shni davlatlar tarixshunosligi (T. Sultonov, M. Abuseitova) ulusning hududiy va genealogik yaxlitligi masalalarini yuqori darajada tadqiq etgan. Ikkinchidan, zamonaviy tadqiqotlarda Chig'atoy ulusi suverenitetining ashyoviy dalillari – numizmatik ma'lumotlar (Kebekiy dinorlari) va urbanizatsiya jarayonlari (Qarshi va Muborak shaharlari) ulusning tashqi dunyodan iqtisodiy va siyosiy jihatdan to'laqonli mustaqil bo'lganini isbotlovchi asosiy omillar sifatida e'tirof etilmoqda. Umuman olganda, zamonaviy O'rta Osiyo tarixshunoslik maktablari Chig'atoy ulusi mustaqilligini mintaqaviy tarixdagi vaqtinchalik turg'unlik emas, balki Movarounnahr va Yettisuvning sivilizatsiyaviy yuksalishini ta'minlagan, keyinchalik milliy davlatchilik modellarining shakllanishiga asos bo'lgan suveren siyosiy tizim sifatida ilmiy jihatdan qayta kashf etdi.

⁹ Бекмуратов С.Т. Чигатой улуси бошқарувида аёлларнинг ўрни // Шарқ машъали № 2. – Т., 2020. – Б. 147-159.; О'sha mual. O'zbek davlatchiligi tarixida Chig'atoy ulusining boshqaruv tizimi (XIII-XV asrlar arab va fors manbalari asosida). PhD diss. avtoreferati. – T., 2025. – 62 b.